

МОЛІУАСНІ

МА'ЛУМОТНОМАСІ **BYULLETENI**

СПРАВОЧНИК

ФИНАНСОВОГО

РАБОТНИКА **БЮЛЛЕТЕНЬ**

2022 3 (123)



TAHRIR KENGASHI:

O.Z. Nasritdinxojayev

D.Sh. Sultonov

A.Ya. Xaydarov

G.X. Raximova

O.R. Isakov

J.I. Abruyev

Sh.D. Muxamedov

A.B. Eshchanov

I.A. Abbosxonova

K.F. Tolipov

I.G. Xamidova

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

О.З. Насритдинходжаев

Д.Ш. Султанов

А.Я. Хайдаров

Г.Х. Рахимова

О.Р. Исаков

Дж.И. Абруев

Ш.Д. Мухамедов

А.Б. Эшчанов

И.А. Аббосхонова

К.Ф. Толипов

И.Г. Хамидова

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Iroda Hamidova

i.f.d., prof. Abdug'afur Ibrohimov

i.f.d., prof. Ne'matilla Karimov

i.f.d., prof. Dilshod Po'latov

i.f.d. Dildora Karimova

i.f.d., prof. Nargiza Qo'ziyeva

i.f.d., prof. Shuhrat Toshmatov

i.f.d., prof. Nizomiddin Haydarov

i.f.d., prof. Rustam Hasanov

i.f.f.d., PhD Kaxramonjon Usmonov

РЕДКОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Ирода Хамидова

д.э.н., проф. Абдугафур Ибрагимов

д.э.н., проф. Неъматилла Каримов

д.э.н., проф. Дилшод Пулатов

д.э.н. Дильдора Каримова

д.э.н., проф. Наргиза Кузиева

д.э.н., проф. Шухрат Ташматов

д.э.н., проф. Низомиддин Хайдаров

д.э.н., проф. Рустам Хасанов

д.ф.э, PhD Кахрамонджон Усмонов

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

Bo'lim boshlig'i: Baxtiyor Atadjanov

Mas'ul kotib: Rahmon Ahmedov

Veb-analitik: Iroda Solihova

Muharrir: Umida Abdullayeva

Rassom-dizayner: Shaxobiddin Xo'jayev

Marketing bo'yicha mutaxassis: Behzod O'ktamov

СОСТАВ РЕДАКЦИИ:

Начальник отдела: Бахтиёр Атаджанов

Ответственный секретарь: Рахмон Ахмедов

Веб-аналитик: Ирода Салихова

Редактор: Умида Абдуллаева

Художник-дизайнер: Шахобиддин Ходжаев

Специалист по маркетингу: Бехзод Уктамов

MUNDARIJA

BUDJET TIZIMI

Dilshod PULATOV,
Xabibulla XAMIDOV

"Ochiq budjet" axborot portalida "Mening yo'lim"
loyihasi ishga tushirildi..... 2

BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTI

Otabek BARAKAYEV

Auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik fikrini
shakllantirish va auditorlik xulosasini tuzish
(700 VA 705-SON AXS)..... 5

Azamat JABBOROV

Davlat moliyaviy nazorati transformatsiyasi:
moliyaviy nazorat va audit..... 13

DAVLAT MOLIYASI

Kamilla URAYEVA

"Yashil" iqtisodiyotga "yashil" moliya orqali..... 20

PENSIYA TIZIMI VA IJTIMOIY HIMOYA

Sherzod RAJABOV

Pensiya tizimining rivojlanish tendensiyalari va moliyaviy
barqarorligini ta'minlash muammolari..... 24

SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH

Sherzod QIYOSOV

Soliq ma'muriyatchiligi sifatini oshirish –
jismoniy shaxslar daromadlaridan soliqni
isloh qilish vazifalari yrosini ta'minlash..... 30

ILMIY-TADQIQOT VA TAKLIFLAR

Sanjar BOLTAYEV

Davlat xaridlari sohasida
korruptsiyani oldini olish..... 37

Diyorbek BAXODIROV

BIG DATA va uning jahon iqtisodiyotida tutgan o'ri..... 44

SAVOLLAR VA JAVOBLAR

Sanjar BOLTAYEV..... 47

БЮДЖЕТНАЯ СИСТЕМА

Дилшод ПУЛАТОВ,
Хабибулла ХАМИДОВ

На информационном портале «Открытый бюджет»
запущен проект «Моя дорога» 49

БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ И ОТЧЕТНОСТЬ

Отабек БАРАКАЕВ

Формирование аудиторского мнения на основе
международных стандартов аудита и составление
аудиторского заключения (МСА 700 И 705) 52

Азамат ЖАББОРОВ

Трансформация государственного финансового контроля:
финансовый контроль и аудит 61

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ФИНАНСЫ

Камилла УРАЕВА

К «Зеленой» экономике через «зеленые» финансы..... 68

ПЕНСИОННАЯ СИСТЕМА И СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА

Шерзод РАЖАБОВ

Тенденции развития пенсионной системы и проблемы
обеспечения финансовой стабильности..... 72

НАЛОГИ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ

Шерзод КИЁСОВ

Повышение качества налогового администрирования –
обеспечение выполнения задач налоговой реформы
на доходы физических лиц 78

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Санжар БОЛТАЕВ

Предупреждение коррупции в сфере
государственных закупок..... 85

Диёрбек БАХОДИРОВ

Big data и её роль в мировой экономике 92

ВОПРОСЫ И ОТВЕТЫ

Санжар БОЛТАЕВ..... 95

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SIFATINI OSHIRISH – JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARIDAN SOLIQNI ISLOH QILISH VAZIFALARI IJROSINI TA'MINLASH



Sherzod QIYOSOV,
Toshkent moliya instituti, dots. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi sifatini oshirish, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini undirish masalalari ko'rib chiqilgan. Jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solishning asosiy muammolari, shuningdek, xorijiy tajriba asosida soliq agentlarining soliq intizomini takomillashtirish yoritilgan.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyatchiligi sifati, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining islohi, soliq intizomi darajasini oshirish.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы повышения качества налогового администрирования в Узбекистане, взимания подоходного налога с физических лиц. Освещены основные проблемы налогообложения доходов физических лиц, а также совершенствование налоговой дисциплины налоговых агентов на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: качество налогового администрирования, реформа налога на доходы физических лиц, повышение уровня налоговой дисциплины.

Abstract. The article studies the issues of improving the quality of tax administration in Uzbekistan, the collection of personal income tax. The main problems of taxation of personal income, as well as the improvement of tax discipline of tax agents on the basis of foreign experience are given.

Key words: quality of tax administration, reform of personal income tax, improvement of tax discipline.

Hozirda "mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish" masalasi Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi loyihasining 79-maqsadida muhim yo'nalish sifatida belgilab berilgan.

Globallashuv va raqamlashtirish jarayoni elektron hukumatning keng rivojlanishi asosida soliq ma'muriyatchiligi sohasiga ham yuqori talablarni qo'ymoqda. Jahon soliq amaliyoti dalolat beradiki, soliq siyosatining hozirgi zamon talablariga moslashuvchanligini ta'minlash zahirida soliq ma'muriyatchiligi sifatini oshirish masalasiga e'tibor qaratilmoqda.

Jahon soliq amaliyotida soliq ma'muriyatchiligi sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda xufiyona iqtisodiyot ulushini kamaytirish hisobiga soliq tushumlarini sezilarli tarzda oshirish, soliq ma'muriyatchiligidagi samarasiz xarajatlarni qisqartirish yo'nalishlari ochib berilgan. Tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, ayrim mamlakatlarda soliq tushumlarining yuqori darajasi soliq axloqi va madaniyatining yuqoriligi hamda soliq qonunchiligining barqarorligi bilan bog'liq bo'lsa, boshqalarida iqtisodiyotda soliq yukining yuqoriligi, samarasiz imtiyozlar va soliq qonunchiligining nobarqarorligi bois soliq tushumlarining past darajasi mazkur tizimdagi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolarni ko'rsatmoqda.

MOLIYACHI MA'LUMOTNOMASI

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligi sifatini oshirish hamda jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligini mukammallashtirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrda 736-son "Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyatga ega.

Soliq ma'muriyatchiligi sifatining mazmun va mohiyati to'g'ri tushunish nazariy-uslubiy jihatdan hamda soliqqa tortish amaliyotini samarali tashkil etish va boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Turli mualliflarning tadqiqotlarida soliq ma'muriyatchiligi sifati mazmunini ta'riflashda yagona yondashuv yo'qligini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq ma'muriyatchiligi sifati mazmunining talqini¹

T/r	Soliq ma'muriyatchiligi sifati mazmuni talqini	Mualliflar va adabiyotlar manbasi
Xorijiy mualliflar		
1.	Soliq ma'muriyatchiligi mamlakatda amal qiluvchi moliyaviy qonunchilik asosida soliq to'lovlari, imtiyozlari va amaldagi soliq rejimidan samarali foydalanish asosida soliq tushumlari real ijrosi hamda davlatning solikli daromadlar asosidagi moliyaviy imkoniyatlari istiqbollarini belgilashga oid tadbirlari yig'indisi bo'lib, uning sifati soliq tushumlari real ijrosining o'sishida namoyon bo'ladi.	Pessino, C., & Fenochietto, R. (2016). Determining countries' tax effort.
2.	Soliq ma'muriyatchiligi – hozirgi zamon sharoitida davlat soliq xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishi. Uning sifati – soliq to'lovchilarning soliq to'lay olish yoki davlatning daromad olish qobiliyati balansining e'tiborga olinishidir.	Kuo, C. Y. Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity./ C. Y. Kuo//JDI Executive Programs. – 2015. – № 2015-08. – 34 p.
MDH mualliflari		
3.	Soliq ma'muriyatchiligi – soliq organlari faoliyatining muhim sifat ko'rsatkichi. Uning sifati soliq to'lovlari haqiqatdagi tushumlari miqdorini o'rganilayotgan davrning eng ko'p miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisob-kitob qilinadi.	Сиражудинова С.И. Повышение эффективности налогового администрирования на современном этапе. Автореферат дис. на соиск. уч. степ. к.э.н. –Владикавказ, 2017. – С. 7.
4.	Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati miqdoriy natijasi – haqiqatda to'langan soliqlar summasini tegishli budjetlar solikli daromadlari rejasiga bo'lish orqali hisoblanadi. Uning sifati – budjetning solikli daromadlari ijrosining tendensiyalari orqali aniqlanadi.	Дьякова Е. Налоговый потенциал и бюджетная емкость территорий: отличия и взаимосвязь//Налоги и финансовое право, 2012, № 9. – с. 140–145
Mahalliy mualliflar		
5.	Soliq ma'muriyatchiligi – soliq tizimini va soliq tushumi ijrosini zamon talablarida tashkil etishning asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri.	Berdieva U.A. Improving tax revenue collection in Uzbekistan. // International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VII, Issue 6, June 2019. – Page 342–348.
6.	Soliq ma'muriyatchiligi – budjetga soliq tushumlarining o'z vaqtida tushishini ta'minlovchi mas'ul xizmat. Ma'lumki, soliq tushumlarining miqdori har yili davlat budjeti daromadlari rejalashtirilayotgan vaqtda aniqlanadi. Bu jarayon moliyaviy rejalashtirishning aniqlik darajasiga bog'liq bo'ladi.	Abdulov D.R., Abduraxmanov O.Q. System of Forms and Methods of Tax Administration in Uzbekistan// International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9, Issue-1, November 2019 Retrieval Number: A9142119119/2019©BEIESP DOI: 10.35940/ijitee.A9142.119119.

Bugungi kunda maxsus iqtisodiy adabiyotlarda va kundalik matbuotda jismoniy shaxslar daromadlaridan

soliq ma'muriyatchiligining mazmuni va holatiga oid turli fikrlar mavjud (2-jadval).

¹ N.A. Artikov. O'zbekistonda samarali soliq ma'muriyatchiligini shakllantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI, 2021. – 13-b.

**Iqtisodiy adabiyotlarda jismoniy shaxslar daromadlaridan
soliq ma'muriyatchiligi mazmunining talqini²**

T/r	Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligi talqini	Mualliflar	Adabiyotlar manbasi
Xorijiy mualliflar			
1.	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq ma'muriyatchiligi har bir davlatning soliq tushumlari va daromadlari qayta taqsimlanishi samaradorligini aniqlash bilan bir qatorda, ishchilarning rasmiy ish bilan ta'minlanishi orqali iqtisodiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatadi.	Matteo Morino, Simon Pilegrino	Matteo Morino, Simone Pilegrino. Personal income tax reforms: A genetic algorithm approach. European Journal of Operational Research. https://www.scienced.com/science/article/pii/S0377221716306142 .
2.	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq ma'muriyatchiligi yagona stavkaning joriy etilishi daromadlarni to'liq qamrab olib, daromadlar samaradorligini ta'minlashi mumkin.	Soren Blomgust, Louren Simula	Soren Blomquist, Laurent Simula. Marginal deadweight loss when the income tax is nonlinear. Journal of Econometrics, http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0304407618302343
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ma'muriyatchiligi, avvalo, ushbu soliqdan tushumlarning davlat budjetidagi o'rni va soliq imtiyozlarining aholi daromadlarini oshirishdagi ahamiyatini inobatga olinishi zarurligini talab etadi.	Xarli L. Luts	Harley L. Lutz "The privilege of personal income taxation". Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 23, № 1 (October, 1937). – Pp. 11–22. Stable URL: http://www.jstor.org/stable/41786912
Mahalliy mualliflar			
4.	Jismoniy shaxslar daromadidan soliq ma'muriyatchiligi davlat budjetining solikli daromadlari tarkibida mazkur soliq ishtiroki va mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan.	M. Xaydarov	Xaydarov M. Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliqni hisoblash va undirish tartibi. // Iqtisod va moliya. Экономика и финансы. 2010, № 7. – 40–49 b.
5.	Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligi – har qanday qonuniy faoliyat manbalari asosida olinuvchi daromadlarning barqarorligini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuyidir.	E. Gadoyev	Gadoyev E.F. Soliqqa tortish tartib-taomillarini takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili. // Iqtisod va moliya. Экономика и финансы. 2015, № 1. – 30–37 b.
6.	Jismoniy shaxslarning daromad solig'i ma'muriyatchiligi soliq qonunchiligi asosida mazkur soliq bo'yicha uning barcha elementlari ijrosiga qaratilgan faoliyatdir.	R. Xusainov	Xusainov R.R. O'zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni isloh qilish muammolari. // Iqtisod va moliya. Экономика и финансы. 2018, № 6. – 43–48 b.

Umuman, tadqiqotchilarning chiqishlarida “jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligi” tushunchasi soliq tizimining shakllanishi davridan ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da, hozirga qadar uning mazmunini yoritishning munozaraliligi saqlanib qolmoqda va mazkur tushuncha ta'rifi qonun hujjatlari bilan mustahkamlanmagan. Bu mavjud yondashuvlar va ularning mazmun jihatdan tavsifini aniqlashtirishni talab etadi. Ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlardan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligi – yaxlit tashkiliy-huquqiy asoslarda soliq to'lovchi va

soliq organlarining hamkorlikda o'sishga erishishning soliq holatini joriy etish orqali soliq majburiyatlarini bajarishning ixtiyoriyligini ta'minlashga qaratilgan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimini davlat tomonidan boshqarish jarayonidir.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligi vazifalari ijrosining natijasi ular daromadlarining muayyan qismini davlatning markazlashgan fondini shakllantirish uchun Davlat budjetiga undirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligi davlat budjeti daromadlarini

² Adabiyotlar sharhi asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

MOLIYACHI MA'LUMOTNOMASI

shakllantirish bilan bir vaqtda, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hamda jismoniy shaxslarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmonida soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozimligi belgilab berilgan. Ushbu vazifani bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va ushbu qaror bilan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi" ma'qullandi. Shuningdek, Qarorga ko'ra, "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi"ning asosiy vazifalari va yo'nalishlari belgilab berildi. Strategiyada 2021-yilga kelib jismoniy shaxslarning daromad solig'i to'lovchilarini 1,5 baravarga oshirish lozimligi ta'kidlandi.

Soliq nazoratini kuchaytirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i islohini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartidir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq to'lovlarining to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan samarali soliq nazorati amalga oshirilgan taqdirdagina jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i adolatlilik tamoyilining amalga oshirilishini ta'minlash mumkin.

Shvetsiyada soliq ma'muriyatchiligining yuqori darajasi quyidagicha tuzilgan: har bir soliq to'lovchi uchun hisob raqami tamoyili bo'yicha ID beriladi; unda to'langan soliqlarning barcha summalari va budjetdan qaytarib olingan ortiqcha to'langan soliq summalari aks etadi; soliq deklaratsiyasi soliq to'lovchilarning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan soliq organi tomonidan mustaqil ravishda to'ldiriladi.

Shvetsiya fuqarolarining yuqori soliq intizomi shu bilan ham xususiyatlanadiki, bunda soliq kam to'langan taqdirda katta miqdorda jarimalar bilan izohlanadi. Aksincha, ortiqcha to'langan taqdirda, ortiqcha summa hisoblangan foizlar bilan qaytariladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazorati tizimiga oid kamchiliklar "xufiyona" iqtisodiyot ko'lamini oshirishga va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i fiskal rolini kamaytirishga olib keladi.

Xorij mamlakatlari bilan taqqoslaganda, O'zbekistonda hozirgi vaqtda soliq ma'muriyatchiligining darajasi asosiy soliqlar bo'yicha fiskal funksiyani to'liq bajarishni ta'minlash uchun yetarli darajada yuqori emas. Hozirgi kunda mamlakatda soliq ma'muriyatchiligi

tizimi faoliyatiga uchta asosiy guruhga bo'linadigan muammolar mavjud:

1. Soliq intizomi darajasining pastligi – soliq nazorati tadbirlarining va soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik darajasining yetarli darajada emasligi. Bu muammo soliqqa tortishni optimallashtirishning ko'plab "sxemalari" mavjudligida, shuningdek, soliq tushumlarining va natijada budjet tizimi daromadlarining kamayishiga olib keladigan ongli tarzda va bilib turib soliq to'lashdan bo'yin tovlashning sezilarli hajmida namoyon bo'ladi.

2. Soliq organlarining soliqqa oid huquqbuzarliklardan ogohlantirish va oldini olishga qaratilgan axborot funksiyasining yetarlicha yo'naltirilmaganligi. O'zbekistonning soliq qonunchiligi, xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risidagi qonun hujjatlari va unda nazarda tutilgan hisobot shakllarini to'ldirish tartibi, ayniqsa, maxsus iqtisodiy yoki moliyaviy ma'lumotga ega bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun juda murakkab va tushunilishi qiyin. Moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligi ongsiz ravishda soliq to'lashdan bo'yin tovlashga, soliq yukini kamaytirishning soliq imtiyozlari kabi qonuniy usullaridan foydalana olmaslikni keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda ushbu muammoni bosqichma-bosqich hal qilish amalga oshirilmoqda, xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi rasmiy veb-saytida katta hajmdagi ma'lumotlar mavjud. Biroq, mazkur ko'rilgan choralarni yetarli deb aytishga hali erta. Ushbu masalada, Ispaniya soliq tizimi muvaffaqiyatli faoliyatining muhim garovlaridan biri bo'lgan – soliq to'lovchilar o'rtasida keng tushuntirish ishlari olib borilishi amaliyotini alohida ta'kidlash mumkin. U soliq to'lovchilarning moliyaviy savodxonligi yetishmasligi holatlarida soliq to'lanmay qolishi yoki kam to'lanishi riskini kamaytiradi.

Ispaniyaning har bir fuqarosiga yil boshida "soliq vektori" deb atalmish yo'riqnoma beriladi, unda joriy yilda to'lanishi kerak bo'lgan barcha soliqlarning qanday va qanday stavkada to'lanishi haqida batafsil ma'lumot ko'rsatiladi.

Fransiyada to'lanadigan daromad solig'ini hisoblashning murakkab va o'ta chalkash tizimi mavjudligi tufayli jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilishiga soliq organlari mas'uldir. Aholini xabardor qilish maqsadida Internet tarmog'ida veb-saytlar yaratilganki, ularda har bir soliq to'lovchi o'zi to'lanadigan soliq miqdorini onlayn tarzda hisoblab chiqishi mumkin.

3. Ma'muriy to'siqlarning mavjudligi. O'zbekistonda soliq organlari bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash bilan bog'liq hujjatlar va hisobotlarni taqdim etish zarurati nuqtayi nazaridan o'zaro hamkorlik jarayoni qonunchilik rejasining ilgari aytib o'tilgan muammolari va tashkiliy xususiyatlari jihatidan ancha murakkabdir. Mazkur murakkabliklar

nafaqat soliq to'lovchilarning ularga berilgan imtiyozlardan foydalanishni istamasligiga, balki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan majburiy bo'yin tovlashiga ham olib keladi. Ongli tarzda va qonuniy normalarni bilmaslik tufayli soliq to'lashdan bo'yin tovlash – eng asosiy muammolardan biridir.

Jismoniy shaxslarga nisbatan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan bo'yin tovlashning yorqin misollaridan biri sifatida ko'chmas mulkni noqonuniy ijaraga berishda har doim ham soliq qonunchiligini bilmaslikdan kelib chiqavermaydi. Yaqin istiqbolda taklif etilayotgan daromad solig'i islohotining muvaffaqiyatini ta'minlash maqsadida, soliq to'lovchilarning ayrim guruhlar uchun soliq yukining kutilayotgan ortishini hisobga olib, soliq nazoratini kuchaytirish, xufiyona iqtisodiyotning o'sish imkoniyatlarini kamaytirishda soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik ta'sirchanligini oshirish zarur. Bundan tashqari, uzoq muddatli istiqbolda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tizimida soliq organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishi soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish hamda profilaktik funksiyani amalga oshirish kerak bo'ladi. Ushbu masalada xorijiy mamlakatlarda amal qilayotgan soliq ma'muriyatchiligining yuqori darajasini, afsuski, mamlakatimiz soliq ma'muriyatchiligi amaliyoti bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Xorijiy mamlakatlarda (Shvetsiya, Daniya) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdori, odatda, hisoblash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar (Shvetsiya, Daniya) soliq qonunchiligi va amaliyotida soliq organlari tomonidan soliqlarni undirish darajasiga katta e'tibor qaratilmoqda, ushbu darajani oshirish uchun to'liq to'lanmagan yoki o'z vaqtida to'lanmaganlik uchun yuqori jarimalar, shuningdek, yil davomida ortiqcha to'langan soliq miqdori summasi bo'yicha foizlar to'lash tarzida rag'batlantirish qo'llanilishi belgilangan.

AQSh soliq tizimining tuzilishi AQSh Mustaqillik Deklaratsiyasi mualliflaridan biri – Benjamin Franklinning "Hayotda o'lim va soliqlardan boshqa muqarrar narsa yo'q" degan bayonotini juda to'g'ri tavsiflaydi. AQSh soliq tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davlat fuqarosi AQSh fuqaroligidan voz kechgan taqdirdagina soliq to'lashdan qochishi mumkin, bu holda u o'n yil davomida AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashi kerak bo'ladi. Tadbirkorlik faoliyatining "xufiyonalashuvi" – soliq to'lashdan qochishning yagona yo'li emas.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki soliq solinadigan bazaning real hajmini yashirish maqsadini ko'zlagan ko'plab sxemalar mavjud. Rasmiy ish haqini minimal darajada belgilash va haq to'lashning katta qismini

"konvert" yo'li bilan to'lash so'nggi yillarda eng keng tarqalgan soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemasidir.

Yashirin ish haqi budjet tizimini, jumladan, davlatning budjetdan tashqari jamg'armalari budjetlarini salbiy oqibatlarga olib keladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashdan bo'yin tovlash O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, soliqqa tortilmaydigan ish haqining bir qismi o'rniga kompensatsiya to'lash orqali ham amalga oshiriladi. Shuningdek, xodimlarga hisobdorlik asosida pul mablag'larini berish ham amalga oshiriladiki, uning tag zamirida ish haqi yashiringan.

Ayni paytda, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda amalda to'langan ish haqining chorak qismi yashiringan ko'rinishga ega. Shu bois, mazkur salbiy holatni bartaraf etishga qaratilgan birinchi qadam turli xil soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarining tarqalishiga qarshi kurashish, xorijiy tajribaga asosan ularning ta'sirchan va tezkor usullaridan biri soliq solinadigan bazani qonuniylashtirish bo'yicha komissiyalar bo'lishi.

Ma'lumki, 2018-yil sentabridan boshlab oylik ish haqining miqdorini qonuniylashtirish va yashash minimumi darajasiga yetkazish bo'yicha tegishli choralar belgilandi. Soliq solinadigan bazani qonuniylashtirish bo'yicha komissiyalar "yashirin" ish haqi, ish haqi bo'yicha qarzdorlikka qarshi kurashish, soliq tushumlarining to'liqligini ta'minlashga chaqirilgan. Komissiyalarning ishi quyidagi tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha guruhlarga bo'linadi, har bir soliq to'lovchi uchun bir xodimga o'rtacha oylik to'lovlar miqdori hisoblanadi. So'ngra o'tgan yilning to'qqiz oyidagi ushbu ko'rsatkich tarmoq bo'yicha o'rtacha ish haqi darajasi bilan taqqoslanadi.

Shunday qilib, ish haqini tarmoqning o'rtacha darajasidan pastroq to'laydigan ish beruvchilar aniqlanadi, bu esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq bazasini yashirishni ko'rsatadi. Bunday holda, komissiya moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qiladi, uning ko'rsatkichlari o'xshash soliq to'lovchilarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslaydi va agar ular mos kelganda va xodimlarning ish haqi darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar sezilarli darajada past bo'lganda, bunday ish beruvchi komissiya majlisiga chaqiriladi.

Mazkur majlisga chaqirishning maqsadi soliq to'lovchilarni haqiqiy to'langan ish haqini e'lon qilishga undashdir. Komissiyalarda ishi ko'rilgan ish beruvchilarga nisbatan soliq organlari tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, shuningdek, majburiy sug'urta badallari bo'yicha soliq solinadigan bazaning monitoringi o'tkaziladi. Shu bilan birga, komissiya majlislariga taklif etilgan ish beruvchilar ro'yxatini shakllantirishda o'tgan yilda ish haqini qonuniylashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmagan,

MOLIYACHI MA'LUMOTNOMASI

xodimlar soni 50 kishidan ortiq bo'lgan, umumiy soliq solish rejimi qo'llanilgan yuridik shaxslarga ustuvorlik beriladi.

O'rtacha ish haqi bilan bir qatorda, ish haqi fondining soliq to'langunga qadar foydaga nisbati, ish haqi fondining tushumdagi ulushi kabi ko'rsatkichlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Ushbu ko'rsatkichlar tashkilotdagi xodimlar soni qanchalik asosli ekanligini, shuningdek, xodimlarning ish haqi qanchalik tabaqalashtirilganligini baholashga imkon beradi. Chunki, bitta xodimning asossiz yuqori ish haqining bir qismi ish haqiga "konvert"da boshqa xodim uchun sarflanishi mumkin.

Komissiyalarni tashkil etish intizomli soliq to'lovchilarni, shuningdek, soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlashning samarali usuli hisoblanadi. Biroq, ularning samaradorligi ko'p hollarda soliq to'lovchining vijdoniga bog'liq. Shuning uchun, bu chora yetarli emasligini tushunish kerak. Soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish, jumladan jismoniy shaxslarga nisbatan soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash vositalarini ishlab chiqish zarur. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarning "sxematik" xususiyatini belgilash imkonini beradigan mezonlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Soliq agentlari faoliyatini salbiy baholash uchun quyidagi mezonlar asos bo'lishi va komissiya tomonidan taqdim etilishi mumkin:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha budjet tizimiga o'tkazmalar bo'yicha qarzlarning mavjudligi;

- yashash minimumidan kam miqdorda ish haqi to'lash;

- tegishli hududda o'rtacha tarmoq ko'rsatkichidan pastroq miqdorda ish haqi to'lash;

- oddiy soliq davriga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i o'tkazmalarining sezilarli darajada kamayishi va hokazo.

Soliq ma'muriyatchiligi muammolarini hal qilish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yilga va 2020 hamda 2021-yillarga mo'ljallangan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarida nazarda tutilgan, xususan, bu boradagi soliq nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar almashinuvi imkoniyatlarini kengaytirish rejalashtirilgan. Soliq organlari bilan o'zaro hamkorlikda ma'muriy to'siqlarni minimallashtirish maqsadida o'zaro elektron aloqaga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilmoqda. Soliq solishning progressiv shkalasiga o'tish bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashning mumkin bo'lgan murakkablashishi munosabati bilan yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan soliq ma'muriyatchiligi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi elektron o'zaro hamkorlikni tashkil etishda erishish mumkin bo'lgan soliq to'lovchilar uchun soliqni hisoblash tartibini maksimal darajada soddalashtirish maqsadga muvofiq. Elektron o'zaro hamkorlikni soliq to'lovchilar tomonidan olingan daromadlarni hisoblash va to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini keyinchalik soliq organi tomonidan mustaqil ravishda hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni soliq organlariga topshirishi, soliq davri yakuni bo'yicha soliq to'lovchini xabardor qilgan holda o'tkazish tamoyili asosida tashkil etilishi o'rindir.

Shunday qilib, mavzuga doir tadqiqot va tahlillar-dan kelib chiqib, quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Soliq ma'muriyatchiligining mavjud muammolari soliq intizomining pasayishiga va buning oqibati sifatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i fiskal salohiyatining va yig'iluvchanligining pasayishiga olib keladi. Endilikda islohotlar samaradorligini ta'minlash maqsadida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyoti oldiga – soliq to'lashning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini samarali nazorat qilish, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soddalashtirishga qaratilgan soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirish zarur.

2. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligi ko'proq davlatning ijtimoiy funksiyalari, shuningdek, ijtimoiy adolat va tenglikka erishishning strategik vazifalari bajarilishini ta'minlashga emas, balki asosan joriy fiskal ehtiyojlarni hal etishga qaratilgan. Mazkur tizim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari vazifalari talablariga javob bermaydi va takomillashtirishga muhtoj.

3. Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq ma'muriyatchiligining takomillashgan tizimi amaldagisidan qator afzalliklarga ega bo'ladi. Jumladan, soliqqa tortilmaydigan minimumning joriy etilishi bilan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning progressivligi kuchayadi va asosli chegirmalarning qat'iy amal qilishi bilan soliq og'irligi zaiflashuviga erishiladi. Fuqarolar kam daromadli qatlamidan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishdan tushumning pasayishi va aholi yuqori daromadli qatlamidan tushumning o'sishi ma'lum darajada jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimida ijtimoiy adolat va fiskal samaradorlik mutanosibligini ta'minlashga imkon beradi. Bu bilan aholining kam daromadli qatlami ixtiyorida qoluvchi daromad ko'payadi. Natijada, iste'mol va jamg'arishning o'sishi orqali mamlakatning iqtisodiy o'sishi ta'minlanadi.

4. Davlatning bozor sharoitida iqtisodiyotni maqsadli boshqarishning shaffof mexanizmlarini yaratish orqali 2021-yildan mamlakatimizda o'rta sinfni shakllantirish, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish

hamda iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorlar joriy etilishini inobatga olib, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning yangi sifat tavsifini ta'minlashga qaratilgan tegishli yo'riqlar va ko'rsatmalar ishlab chiqilishi lozim. Ushbu yo'riqlar va ko'rsatmalarning ishlab chiqilishi va tez fursatlarda hayotga tatbiqu daromadlarni soliqqa tortishda ijtimoiy adolat tamoyili ijrosi ta'minlanishiga hamda jismoniy shaxslarning daromadlari legallashtirishiga hamda soliq

qonunchiligiga itoatkor fuqarolarning o'z kelajagi va muvaffaqiyatlariga bo'lgan ishonchining oshirishini ta'minlaydi.

5. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq to'lovchilar hamda soliq organlari o'zaro manfaatli faoliyatini ta'minlash lozim. Bunda soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning samarali faoliyat yurituvchi soliq ma'muriyatchiligi instituti orqali davlatga bo'lgan ishonchi ortadi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi loyihasi. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrda 736-son "Soliq ma'muriyatchiligi yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz
3. Pessino, C., & Fenochietto, R. (2016). Determining countries' tax effort.
4. Kuo, C. Y. Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity. / C. Y. Kuo // JDI Executive Programs. – 2015. № 2015-08. – 34 p.
5. Matteo Morino, Simone Pilegrino. Personal income tax reforms: A genetic algorithm approach. European Journal of Operational Research. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0377221716306142>.
6. Soren Blomquist, Laurent Simula. Marginal deadweight loss when the income tax is nonlinear. Journal of Econometrics, <http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0304407618302343>
7. Harley L. Lutz "The privilege of personal income taxation". Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 23, № 1 (October, 1937). – Pp. 11–22. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/41786912>
8. С.И. Сиражудинова. Повышение эффективности налогового администрирования на современном этапе. Автореферат дис. на соиск. уч. степ. к.э.н. – Владикавказ, 2017. – С. 7.
9. Е. Дьякова. Налоговый потенциал и бюджетная емкость территорий: отличия и взаимосвязь // Налоги и финансовое право, 2012, № 9. – С. 140–145.
10. U.A. Berdieva. Improving tax revenue collection in Uzbekistan. // International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VII, Issue 6, June 2019. – Page 342–348.
11. D.R. Abdulov, O.Q. Abduraxmanov. System of Forms and Methods of Tax Administration in Uzbekistan // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9, Issue-1, November 2019 Retrieval Number: A9142119119/2019©BEIESP DOI: 10.35940/ijitee.A9142.119119
12. M. Xaydarov. Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliqni hisoblash va undirish tartibi. // Iqtisod va moliya. Ekonomika i finansy, 2010, № 7. – 40–49 b.
13. E.F. Gadoyev. Soliqqa tortish tartib-taomillarini takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili. // Iqtisod va moliya. Экономика и финансы, 2015, № 1. – 30–37 b.
10. R.R. Xusainov. O'zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni isloh qilish muammolari // Iqtisod va moliya. Экономика и финансы, 2018, № 6. – 43–48-b.